

YASHIL BUDJETLASHTIRISH: MUAMMO VA YECHIM

Obid Meyliyev ¹¹ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Iqtisod fanlar doktori

Meyliyev-obid@rambler.ruNargiza To'xtasinova ¹¹ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti MMT-73/23- guruh talabasinargizatukhtasinovaa@gmail.comMAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:12.07.2025

Revised: 13.07.2025

Accepted:14.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

yashil
budjetlashtirish, yashil
iqtisodiyot, integratsiya,
yashil obligatsiya,
ekologik loyihalar.

Ushbu maqolada yashil budjetlashtirish va mazkur sohadagi mavjud muammolar o'rganilgan hamda ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Maqolada, yashil soliqlar, ekologik investitsiyalar va yashil obligatsiyalar orqali davlat budjetining daromadlarini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, budjet tiziming samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va ekologik loyihalar orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishning ahamiyati yoritilgan hamda davlatlar va xalqaro tashkilotlarning yashil iqtisodiyotga o'tishdagi ro'li va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tadqiq etilgan hamda mamlakatimizda qo'llash yuzasidan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

KIRISH. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishni va odamlarning hayot sifatini yaxshilashni atrof-muhit va ijtimoiy farovonlikni rivojlantirish bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan iqtisodiyotdir. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi bilan bog'liq muammolar insoniyatning azaliy muammosi bo'lganligi sababli ham yashil iqtisodiyot va uni rivojlantirish har bir mamlakatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona va tejab-tergab foydalanish kiradi va bu vazifalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni budjetlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Yashil budjetlashtirish” ekologik barqarorlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni moliyaviy rejalashtirish jarayonini integratsiya qilishni nazarda tutadi. Yashil budjetlashtirish ekologik barqarorlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni davlat moliya siyosatiga integratsiya qilish jarayoni hisoblanib u iqtisodiy va ekologik xavfsizlikni birlashtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv davlat budjetini shakllantirishda ekologik omillarni hisobga oladi va shu orqali atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va yashil iqtisodiyotga o’tishni qo’llab quvvatlashni maqsad qiladi. Bugungi kunda “yashil budjetlashtirish” ning bir nechta asosiy tamoyillari amal qilib, ularga ekologik integratsiya, yashil investitsiyalar, samaradorlik va shaffoflikni keltirish o‘rinlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

“Yashil budjetlashtirish” atamasi birinchi marta 1987-yilda Brundtland komissiyasi hisobotida vujudga kelgan. Yashil budjetlashtirish “Hukumatlarning markaziy iqtisodiy va tarmoq idoralari endi o’zlarining siyosatlari, dasturlari va budjetlarni rivojlanishni qo’llab-quvvatlashini ta’minlash uchun to’g’ridan-to’g’ri va to’liq javobgar bo’lishi kerak”- degan tavsiyanoma asosida paydo bo’lgan. Bu ekologik va iqtisodiy jihatdan barqarorlikni anglatadi. Bu hisobotdan keyin, 1989-yilda davlat budjetining ekologik profilini joriy etgan Norvegiya va Fransiya kabi mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini davlat moliyaviy boshqaruviga ekperimental integratsiya qilish bo’lib o’tdi. Bunday eksperimentl integratsiya qilish bo’yicha Italiya yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda “yashil budjetlashtirish” bo’yicha xorijda va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan dasturlar nazariy jihatdan tahlil qilingan, daromadlarni qay tarzda tez, samarali va davomli tarzda amalga oshirish haqida fikr va g’oyalar ilgari surilgan hamda yashil budjetlashtirishda mavjud muammolar uchun samarali yechimlar keltirilgan. Shuningdek, xalqaro tadqiqot va “yashil budjetlashtirish”ga oid ilmiy qarashlar o’rganilgan. Tadqiqotda ilmiy tahlil, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash, jadval va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Yashil budjetlashtirishning samaradorligini tahlil qilishda ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun amalga oshirilgan strategiyalarning davlat budjetiga qanday ta’sir etishini ko’rib chiqish asosiy vazifalarda biri hisoblanadi. Yashil budjetlashtirishning asosiy maqsadi tabiiy resurslarni iqtisodiy jihatdan samarali boshqarish va atrof-muhitga bo’lgan ta’sirini minimallashtirishdir. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ijtimoiy va

iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadida yashil soliq siyosati va investitsiyalarni kuchaytirish zarur³⁹.

Ekologik zararlarga sabab bo'ladigan faoliyatlarni kamaytirish va atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni kamaytirish uchun eng samarali vositalardan biri yashil soliqlardir. Misol uchun, karbon solig'i yoki chiqindilarni kamaytirish uchun to'lovlar kiritilishi atrof-muhitni muhofaza qilishga qaraydigan moliyaviy stimullarni yaratadi va davlat budjetining daromadlarini oshiradi, chunki, ular ekologik jihatdan zararli faoliyatni cheklaydi hamda atrof-muhitga ta'sir qiluvchi kompaniyalarga ekologik mas'uliyatni oshiradi. Hozirgi kunda quyidagi mamlakatlar mana shunday zararlarni kamaytirish maqsadida ushbu soliqdan foydalanadi: Argentina, Kanada, Chili, Xitoy, Kolumbiya, Daniya, Yevropa Ittifoqi (27 ta davlat), Yaponiya, Qozog'iston, Koreya, Meksika, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Singapur, Janubiy Afrika, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va Ukraina. Ushbu mamlakatlar qatoriga qo'shilishni o'ylab ko'rayotgan boshqa davlatlar - Braziliya, Brunej, Indoneziya, Pokiston, Rossiya, Serbiya, Tailand, Turkiya va Vetnam⁴⁰.

Ekologik investitsiyalar yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishga imkon beradi. Misol uchun, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar, suv va havo sifatini yaxshilashga qaratilgan loyihalar davlat budjetining ekologik sektorini rivojlantirishga hissa qo'shadi. 2030-yilga qadar BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari doirasida belgilangan maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ifloslanish sababli o'limlarni sezilarli darajada kamaytirish (maqsad 3.9); qayta tiklanuvchi energiya ulushini global energiya aralashmasida sezilarli darajada oshirish (7.2); chiqindilarni sezilarli darajada kamaytirish (12.5); va shirin suv, okean va o'rmon ekosistemalarini himoya qilish va tiklash (6.6, 14.2 va 15.2). Shuningdek, 189 ta davlat Parij iqlim shartnomasining bir qismi bo'lib, global isishning 1.5 dan 2.0 daraja Selsiyga ko'tarilishini cheklashga majburiyat olib borgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun xususiy sektor tomonidan ulkan investitsiyalar talab qilinadi, bu esa resurs iste'moli, energiya ishlab chiqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va boshqa iqtisodiy tizimlarni o'zgartirishni taqozo etadi, va bu o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun siyosiy aralashuv ko'plab yo'nalishlarda zarur bo'ladi⁴¹.

³⁹ Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T.: "Universitet", 2020.

⁴⁰ <https://earth.org/what-countries-have-a-carbon-tax/>

⁴¹ Catalyzing Investment for Green Growth: The Role of Business Environment and Investment Climate Policy in Environmentally Sustainable Private Sector Development

Davlatlarga atrof-muhitni muhofaza qilish uchun kerakli mablag'larni jalb qilish imkonini beruvchi obligatsiyalar bu yashil obligatsiyalardir. Ular ekosistemani saqlash va atrof-muhitni yaxshilash uchun qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun xizmat qiladi. Yashil obligatsiyalar davlat budjetining ekologik loyihalarga bo'lgan sarmoyalarini oshiradi, davlatning ekologik barqarorligini ta'minlashga yordam beradi, shu bilan birga, ular orqali jamg'armalar yig'iladi. Yashil obligatsiyalar odatdagi obligatsiyalar kabi ishlaydi, faqat investorlar tomonidan yig'ilgan mablag'lar faqat ijobiy atrof-muhit ta'siriga ega loyihalarni moliyalashtirishga sarflanishi ular o'rtasida muhim farqdir. Misol uchun, qayta tiklanadigan energiya va yashil binolar uchun tashkillashtirilgan loyihalarni moliyalashtirish. Dunyo bo'ylab mamlakatlar karbon chiqindilarini kamaytirishga bo'lgan sa'y-harakatlarini kuchaytirayotgan bir vaqtda, yashil obligatsiyalar bozorining o'sishi juda tezlashdi. Bu tez o'sish birinchi marta 2021-yil oktyabr oyida ta'kidlangan bo'lib, Evropa Ittifoqi (EI) taxminan 14 milliard dollar miqdorida obligatsiyalar chiqarib, o'sha paytdagi eng katta kelishuvni amalga oshirdi⁴². Bu kabi o'sishlar iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishga erishish bo'yicha yangi strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Yashil obligatsiyalar, o'z navbatida, mamlakatlarga ekologik loyihalarni moliyalashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda katta imkoniyat yaratadi. Bu bozorning o'sishi, ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va karbon chiqindilarini kamaytirish yo'lida katta qo'shimcha manbalarni taqdim etadi.

Yashil budjetlashtirishni samarali amalga oshirish uchun birinchi navbatda davlat budjet tizimini takomillashtirish zarur. Bu budjet tizimining shaffofligini ta'minlash va ekologik loyihalarni moliyalashtirishda ishonchni oshirishni anglatadi. Davlat o'z budjet tizimlarini qayta ko'rib chiqish va ekologik ehtiyojlarga moslashtirish orqali moliyaviy resurslarni samarali boshqarishi hamda ekologik barqarorlikni ta'minlab muvaffaqiyatga erishadi. Misol uchun, iqlim o'zgarishi oqibatlari O'zbekiston aholisi farovonligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. 2030-yilga kelib, mamlakat bo'ylab shahar va qishloqlarda kamida 8 million kishi iqlim o'zgarishi xavfi juda yuqori bo'lgan hududlarda istiqomat qilishi kutilmoqda. CCDBR hisob-kitoblariga ko'ra, agar iqlim o'zgarishiga moslashish choralari ko'rilmasa, 2050-yilga borib milliy iqtisodiyot hajmi iqlim o'zgarishidan zarar ko'rmagan holatdagi ko'rsatkichdan 10 foizga kichikroq bo'ladi. Bu aholi bandligi va uy xo'jaliklari

⁴² <https://www.weforum.org/stories/2024/11/what-are-green-bonds-climate-change/>

daromadining sezilarli darajada qisqarishiga olib keladi⁴³. Shuning uchun, iqlim o'zgarishiga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish, masalan, yashil texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlimga moslashuvni kuchaytirish kabi yo'nalishlarda ish olib borish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ham saqlashga yordam beradi. Aholining iqlim o'zgarishiga qarshi xabardorligini oshirish, hukumatlar va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, global miqyosda iqlim siyosatlarini amalga oshirish uchun qadamlar tashlash zarur. Bu barcha chora-tadbirlar iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi va kelajakda barqaror rivojlanishga erishish uchun imkoniyat yaratadi.

Ko'plab OECD mamlakatlari o'zlarining davlat moliyaviy boshqaruv tizimlariga yashil budjetlashtirishni kiritgan bo'lib, bu iqlim va atrof-muhit maqsadlarini amalga oshirishga yordam beradi. 2022-yilda, OECD mamlakatlarining uchdan ikki qismi (36 mamlakatdan 24 tasi) yashil budjetlashtirish choralari joriy etgan. Bu 2020-yilda yashil budjetlashtirishni joriy etgan 14 mamlakatga nisbatan o'sishdir. Shunga o'xshash so'rovga ko'ra, 2022-yilda yashil budjetlashtirishni qo'llayotgan OECD mamlakatlarining ulushi, hukumatlarning iqlim va atrof-muhit maqsadlarini budjet jarayonlariga integratsiya qilishga bo'lgan kuchli qiziqishlarini ko'rsatadi⁴⁴. Bu o'zgarishlar, davlatlarning iqlim va atrof-muhit maqsadlarini budjet jarayonlariga kiritishda yanada qat'iyroq va maqsadli yondashuvni amalga oshirayotganini anglatadi. Iqlim o'zgarishining salbiy ta'siriga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalarni taqdim etishda ham muhim ahamiyatga ega. OECD mamlakatlarining yashil budjetlashtirishga o'tishi, boshqa davlatlar uchun ham o'rnak bo'lib, ularga iqlim siyosatlarini amalga oshirishda keng qamrovli moliyaviy vositalarni yaratishga yordam beradi. Yashil budjetlashtirishning kengayishi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar strategiyasining 58-bandida:

⁴³ <https://www.gazeta.uz/oz/>

⁴⁴ https://www.oecd.org/en/publications/green-budgeting-in-oecd-countries-2024_9aea61f0-en.html

- iqtisodiyot tarmoqlarida “yashil” va kam uglerodli rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalari va samarador texnologiyalarni jalb qilish;

- “yashil” innovatsiyalarni tashkil qilish va investitsiyalarni jalb qilish;

- “yashil” iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan rejalarni amalga oshirish va rivojlanish istiqbollari bo'yicha takliflar ishlab chiqish kabi chora tadbirlar nazarda tutilgan⁴⁵.

2024-yilning 27-noyabr kuni Toshkentda Orol dengizi inqirozining oqibatlarini bartaraf etish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining yashil reabilitatsiyasi investitsiya loyihasining boshlanishiga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi (Orol dengizi GRIP). Bu loyiha Global Green Growth Institute (GGGI) bilan hamkorlikda, Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi (KOICA) moliyaviy yordami bilan amalga oshirilmoqda. Loyihalar, rasmiy rivojlanish yordamidan (ODA) an'anaviy texnik yordamni samarali ravishda yashil investitsiyalarni jalb qilishga aylantiradigan innovatsion modeldir, bu esa London Fond Birjasida hamkor banklar tomonidan 1 milliard AQSH dollari miqdorida barqaror yashil obligatsiyalar chiqarilishi bilan tasdiqlangan. GRIP, O'zbekistonda iqlim va yashil loyihalarga katta miqdordagi xalqaro moliyalashni yo'naltirib, yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish va O'zbekistonda yashil ta'sirni kengaytirishni maqsad qilgan⁴⁶. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda atrof-muhitni yaxshilash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalarni taqdim etadi. Shuningdek, Orol dengizi inqirozining oqibatlarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muhim tashabbus sifatida, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Bunday tashabbuslar, nafaqat Orol dengizining atrofidagi hududlarni tiklash, balki butun mamlakatning ekologik va iqtisodiy barqarorligini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy moliyaviy resurslarni taqdim etadi. Shu tarzda, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki Orol dengizi inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston uchun Iqlim va taraqqiyot mamlakat hisoboti (CCDR) mamlakatning 2050 yilga kelib 50 milliondan ortiq aholiga ega bo'lishi kutilayotgan o'sish davrida o'zgarishlar yo'lida yuzaga keladigan muhim punktlarni ta'kidlaydi. Jahon Banki tomonidan chiqarilgan hisobot, 2016 yildan boshlab amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar to'qqiz yilligini

⁴⁵ <https://lex.uz/ru/docs/-6622631> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2023-y., 09/23/514/0735-son)

⁴⁶ <https://gov.uz/en/eco/news/view/28827>

tahlil qilib, O'zbekistonga o'zini zamonaviy, xususiy sektor asosidagi iqtisodiyotga aylantirishni maqsad qilgan holda, mavjud muammolarni hal qilish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqlim o'zgarishining og'ir oqibatlar bilan yuzlashmoqda, bular Orol dengizining qurishi va qurg'oqchiliklar, ekstremal issiqlik, yomg'ir o'zgaruvchanligi va chang bo'ronlarining ko'payishi kabi hodisalarda namoyon bo'lmoqda. ifloslanishning salomatlikka ta'siridan kelib chiqadigan yillik zararlar iqtisodiyotning 6,5%ini tashkil etmoqda. Kelajakdagi iqlim xavflari suv xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi va erning degradatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, barqaror o'sish uchun tahdid solmoqda⁴⁷. O'zbekiston iqlim o'zgarishi bilan bog'liq qiyinchiliklarni yengib o'tar ekan, davlat byudjeti iqlimga oid tashabbuslarga ajratilgan mablag'larni doimiy ravishda oshirib bormoqda. 2020 yildan 2022 yilgacha iqlimga ijobiy xarajatlar byudjetning umumiy hajmining 2,5% dan 3,0% ga oshdi, 2022 yilda bu miqdor 26 302,4 milliard so'mga yetdi. Iqlim xarajatlarining bu o'sishi asosan qishloq xo'jaligi va transport sohalarida to'plangan bo'lib, bu ikki soha jami investitsiyalarning 65% dan ortig'ini tashkil etadi. E'tiborga molik jihat shundaki, umumiy iqlim xarajatlarining taxminan 95% iqlimga moslashish choralari uchun ajratilgan⁴⁸. Bu, O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda, moslashuvchanlikni kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarining ustuvorligini ko'rsatadi. Mablag'lar esa ekologik tizimlarni tiklash, qishloq xo'jaligi va transportda barqaror amaliyotlarni joriy etish, suv resurslarini samarali boshqarish va yangi energetika tizimlarini rivojlantirish kabi loyihalarga yo'naltirilmoqda.

2026 yilga borib, O'zbekiston quyosh va shamol energiyasi quvvatini 5 000 MVt ga yetkazishni rejalashtirmoqda, 2030 yilga kelib esa bu raqam 18 000 MVt dan ortadi deb kutilyapti. Bu mamlakatga yiliga 50 milliard kVt soat elektr energiyasini ishlab chiqarish, 15 milliard kub metr tabiiy gazni tejash va har yili 21 million tonna zararli gazlarning emissiyasini oldini olish imkonini beradi. Ushbu sa'y-harakatlar O'zbekistonga 2030 yilga kelib, elektr energiyasining 40% ni qayta tiklanuvchi manbalardan ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi⁴⁹. Biroq, bu yirik maqsadlarga erishishda bir nechta muammolar mavjud: moliyaviy resurslarning cheklanganligi, texnologik infratuzilmaning yetishmasligi va energiya tizimining noaniqligi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun esa yashil budjetlashtirish, texnologik hamkorlik, samarali energiya tizimlarini yaratish va ijtimoiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur. Shu yo'l bilan, O'zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlaydi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

⁴⁷ <https://daryo.uz/en/2023/11/22/uzbekistan-requires-400bn-for-green-transformation-by-2060-ccdr>


⁴⁸ P000927 The Republic of Uzbekistan: Accelerating the Uzbekistan Climate Transition for Green, Inclusive, and Resilient Economic Growth (Subprogram 1)

⁴⁹ <https://daryo.uz/en/2024/11/10/uzbekistan-targets-over-18000-mw-of-solar-and-wind-energy-by-2030>

O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, bu mintaqaning eng dolzarb muammolaridan biri suv yetishmasligidir. Jahon Resurslari Instituti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2040 yilga borib suv resurslari bo'yicha yuqori darajadagi stressga duchor bo'ladigan mamlakatlar orasida 29-o'rinda turadi. Kutilayotgan stress darajasi butun Markaziy Osiyo mintaqasida 80%dan ortiq bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bu raqamlar juda xavotirli, ayniqsa O'zbekiston aholisining 2040 yilga kelib 42 milliondan oshishi kutilayotganini hisobga olgan holda. Prognozlar bo'yicha, aholi sonining tez o'sishi suv yetishmovchiligi 44-46% gacha oshishiga olib kelishi mumkin⁵⁰. Suv resurslariga talabning oshib borishi va ularning tez kamayishi sharoitida ushbu muammoni hal qilish uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rish juda muhimdir.

2023 yil 1-apreldagi Prezident farmoniga ko'ra, 2023 yilgacha Sirdaryo havzasida suv resurslari uzoq muddatli normaga nisbatan 10-15%ga, Amudaryo havzasida esa 15-20% ga kamayishi kutilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Suv Sektori Rivojlanishi Konsepsiyasida 2020-2030 yillar uchun O'zbekiston tomonidan foydalaniladigan suv resurslarining o'rtacha yillik hajmi 51-53 milliard m³ ekanligi qayd etilgan bo'lib, buning 80% (taxminan 41 km³/yil) transchegaraviy daryolarga to'g'ri keladi. Amudaryo va Sirdaryo daryolaridagi suv hajmining kamayishi O'zbekistondagi suv ta'minotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va bu jiddiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga olib keladi.

O'zbekistonda suv resurslarining taqsimlanishi



2-diagramma. O'zbekistonda suv resurslarining taqsimlanishi⁵¹.

⁵⁰ World Resources Institute (WRI) – wri.org

⁵¹ <https://cabar.asia/en/transition-to-green-economy-in-uzbekistan-opportunities-and-challenges>

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, suvning asosiy qismi ya'ni 91,0 foizi qishloq xo'jaligiga sarflanadi, bu esa sug'orish va paxta yetishtirish kabi sohalarga katta talabni ko'rsatadi. Kommunal xizmatlar 4,5 foizni tashkil etsa, ishlab chiqarish, boshqa sanoat tarmoqlari, baliqchilik va issiqlik energiyasiga sarflanadigan suv ulushi mos ravishda 1,4 foiz, 1,4 foiz, 1,2 foiz va 0,5 foizni tashkil qiladi. Suv resurslarining samarali ishlatilishi va tejash zarurati ayniqsa iqlim o'zgarishi va aholi sonining o'sishi hisobga olinsa, juda muhimdir.

Xulosa

Yashil budjetlashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirishda davlatlar uchun muhim vosita sifatida shakllanmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida davlatlar o'z budjetlarini ekologik yo'nalishga yo'naltirish uchun turli strategiyalarni, jumladan, yashil soliqlar, ekologik investitsiyalar va yashil obligatsiyalarni qo'llashadi. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi, ayniqsa, Orol dengizining ekologik inqiroziga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan tashabbuslar mamlakatning ekologik barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday tashabbuslar O'zbekistonning global yashil iqtisodiyotga qo'shilishi, iqtisodiy o'sishni kuchaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Yashil budjetlashtirish samarali amalga oshirilishi uchun davlat byudjeti tizimining shaffofligini ta'minlash va ekologik loyihalarni moliyalashtirishda ishonchni oshirish zarur. Bular ekologik va iqtisodiy yutuqlarga erishish uchun zaruriy shartlardir. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, yashil iqtisodiyotga o'tishdagi muvaffaqiyatni tezlashtirishga yordam beradi.

Davlatlar yashil moliyaviy vositalar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'z iqtisodiyotlarining ekologik jihatdan toza va barqaror bo'lishini ta'minlashlari mumkin. Shu tarzda, yashil budjetlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Bunda davlatlarning ekologik siyosatlarini amalga oshirishda nafaqat ichki resurslar, balki xalqaro hamkorlik va qo'llab-quvvatlash tizimlaridan foydalanish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T.: "Universitet", 2020.
2. <https://earth.org/what-countries-have-a-carbon-tax/>
3. Catalyzing Investment for Green Growth: The Role of Business Environment and Investment Climate Policy in Environmentally Sustainable Private Sector Development
4. <tps://www.weforum.org/stories/2024/11/what-are-green-bonds-climate-change/>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/>

6. https://www.oecd.org/en/publications/green-budgeting-in-oecd-countries-2024_9aea61f0-en.html
7. <https://lex.uz/ru/docs/-6622631> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2023-y., 09/23/514/0735-son)
8. <https://gov.uz/en/eco/news/view/28827>
9. <https://daryo.uz/en/2023/11/22/uzbekistan-requires-400bn-for-green-transformation-by-2060-ccdr>
10. P000927 The Republic of Uzbekistan: Accelerating the Uzbekistan Climate Transition for Green, 9. 9. Inclusive, and Resilient Economic Growth (Subprogram 1)
11. <https://daryo.uz/en/2023/11/22/uzbekistan-requires-400bn-for-green-transformation-by-2060-ccdr>
12. **World Resources Institute (WRI)** – wri.org
13. <https://cabar.asia/en/transition-to-green-economy-in-uzbekistan-opportunities-and-challenges>

